

NAVOIY ASARLARINI O'QUVCHILARGA O'QITISH

Muhammadjonova Gulsanam Vohidjon qizi

*Qo'qon Davlat Universiteti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi bosqich talabasi
gulsanammukhammadjanova05@gmail.com +998939966076*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada umumta'lim maktablarining 6-sinf adabiyot darslarida Alisher Navoiy lirikasini o'qitishda zamonaviy pedagogik yondashuvlardan foydalanish masalalari yoritilgan. Xususan, o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini faollashtirish hamda ruboiylarni mazmunan chuqur anglashiga erishishda "Ko'priklar" metodining didaktik imkoniyatlari tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida kuzatish va taqqoslash metodlaridan foydalanilib, mazkur metodning dars samaradorligini oshirishdagi ahamiyati asoslab berilgan.*

Annotation: *This article examines the use of modern pedagogical approaches in teaching Alisher Navoi's lyric poetry in 6th-grade literature classes of general secondary schools. In particular, the didactic potential of the "Bridges" method is analyzed in enhancing students' logical thinking and achieving a deep understanding of the content of rubaiyat. During the research process, observation and comparison methods were employed, and the significance of this method in increasing lesson effectiveness is substantiated.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются вопросы использования современных педагогических подходов при обучении лирике Алишера Навои на уроках литературы в 6-х классах общеобразовательных школ. В частности, анализируются дидактические возможности метода «Мосты» в активизации логического мышления учащихся и достижении глубокого понимания содержания рубаи. В ходе исследования были использованы методы наблюдения и сопоставления, а также обоснована значимость данного метода в повышении эффективности урока.*

Kalit so'zlar: *Alisher Navoiy, Navoiy lirikasini o'qitish, ruboiy janri, zamonaviy pedagogik metodlar, "Ko'priklar" metodi, adabiy ta'lim, interfaol usullar.*

Alisher Navoiy o'zbek mumtoz adabiyotining yirik namoyandasi bo'lib, uning badiiy merosi bugungi adabiy ta'lim jarayonida muhim o'rin tutadi. Shoir asarlarini o'rganish o'quvchilarda nafaqat adabiy tafakkurni, balki ma'naviy-axloqiy qarashlarni shakllantirishda ham katta ahamiyatga ega. Shu bois Alisher Navoiy lirikasini zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida o'qitish masalasi bugungi ta'lim tizimi uchun dolzarb hisoblanadi.

Bugungi kunda axborot texnologiyalari muhitida shakllanayotgan o'quvchilarning (Z avlod) dars jarayoniga bo'lgan qiziqishini oshirish, ularni mustaqil fikrlashga yo'naltirish o'qituvchidan yangicha metodlardan foydalanishni talab etadi. Shu nuqtayi

nazardan, Alisher Navoiy ruboiylarini o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish dars samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

6-sinf darsligida ham huddi shunga amal qilingan holda topshiriqlar joylangan. Darsni boshlashdan avval o'qituvchi o'quvchilarga savol bilan murojaat qilishi kerak: "Alisher Navoiy hayoti va ijodi haqida qanday ma'lumotlarni bilasiz?". Shunda o'quvchi shoir hayotiga oid bo'lgan ma'lumotlarini bir joyga yig'adi va bu orqali ularni fikrlashga undaymiz. Darsligimizda shoir hayotidan keyin quyidagi savollarni ko'rishimiz mumkin: "Alisher Navoiy hayoti va ijodiga daxldor qaysi ma'lumotlardan hayratlandingiz? Nima uchun? Buyuk inson bo'lish uchun nimalar qilish lozim deb o'ylaysiz?" bu savollar o'quvchini yanada ko'proq o'ylantiradi.

Keyin esa navoiy asarlarida qo'llanuvchi eski so'zlar misollari berilgan:

ag'yor – begona, dushman;

g'ayr – boshqa, begona;

g'arib – bechora;

g'urbat – musofirlik, begona yurt;

shafiq – rahmdil, mehribon;

shafqat – rahmdillik, mehribonlik

Ko'rinib turibdiki, bu so'zlarni hozirgi kunda ma'nolari boshqa-boshqa. Mana shularning ma'nosini o'quvchilarning o'ziga vazifa qilib berilsa, qiyinchilik bilan topilgan osh qadrli bo'ladi deganlaridek, so'zlarning ham ma'nosi xotiralarida saqlanib qoladi.

Undan so'ng esa darslikda jadval keltirilgan. Unda o'quvchilarga bugungi kunda ishlatayotgan qo'shimchalarimiz va Navoiy davridagi qo'shimchalar farqi keltirilgan.

Bular nega aynan o'quvchiga Navoiy ruboiylarini o'qimasidan oldin berilyapti? Chunki o'quvchi oldindan muhitni his qiladi. Darhol ruboiyga o'tilsa va undagi notanish yoki bugungi kunda ma'nosi o'zgargan so'zlarni ko'rsa, ruboiyni asl ma'nosini anglolmaydi. Navoiyshunos olim Ibrohim Haqqul aytganidek: „Navoiyni yetarli darajada bilish – adolat, diyonat va imon-e'tiqodning kuchiga ishonch demak. Ko'nglida shu ishonch g'olib bo'lgan odamlar soni jamiyatimizda qancha ko'paysa, insoniy muammolar har qalay kamayib boradi”.



Alisher Navoiy ruboiylarini o'qitishda "Ko'priklar" metodidan foydalanish o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu metodda o'qituvchi doskada ixtiyoriy shaklni tasvirlab, uni bir nechta bo'laklarga ajratadi. Har bir bo'lak ruboiy mazmuni bilan bog'liq topshiriqni ifodalaydi.

O'quvchilar mazkur bo'laklarni ruboiydan keltirilgan misollar asosida mantiqiy ketma-ketlikda bog'laydi. Natijada o'quvchilar ruboiy mazmunini yaxlit holda anglaydi, badiiy tafakkuri va eslab qolish qobiliyati rivojlanadi. Mazkur metod dars jarayonida faollikni oshirish hamda mumtoz adabiy matnlarni o'zlashtirishni yengillashtiradi.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy lirikasini o'qitishda zamonaviy pedagogik metodlardan foydalanish o'quvchilarning badiiy tafakkurini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. "Ko'priklar" metodini qo'llash orqali o'quvchilarning ruboiy mazmunini chuqur anglash, mantiqiy bog'lanishlarni aniqlash va mustaqil fikrlash ko'nikmalari shakllanadi. Mazkur metod adabiyot darslarida o'quvchilar faolligini oshirish, mumtoz adabiyotga bo'lgan qiziqishni kuchaytirish hamda ta'lim samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Husanboyeva Q. Adabiyot o'qitish metodikasi va muammoli ta'lim. Toshkent. Innovatsiya-Ziyo. 2022-yil.
2. Ibrohim Haqqul. Navoiyga qaytish. Toshkent. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi „Fan“ nashriyoti 2007. 222b.
3. Rahmatova Feruza :Navoiy asarlarini o'qitishda integratsion yondashuv" maqolasi. Scientific Journal Impact Factor jurnali.
4. Yo'ldoshev R.A. Mirjalolova L.R. Ona tili ta'limida kompetensiyaviy yondashuv: Metodik qo'llanma. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbek tili va adabiyoti universiteti, 2019.
5. Zulxumor Mirzayeva, Komil Jalilov . 6-sinf adabiyot darsligi. Respublika ta'lim markazi. 2022.